XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

Kengash raisi, +998 70 214 7590, Bekobod shahar,G'.G'ulom ko'chasi 1-uy

2026-yil 28-avgust VII-35-60-10-149-K/26 Bekobod shahar

Bekobod shahridagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (ko‘chalar, tor ko‘chalar va berk ko‘chalar) nom berish hamda ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori asosida shahardagi 33 ta mahalladagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan 419 ta ko‘cha, tor ko‘cha va berk ko‘chalar toifalarga ajratilib, xatlov ishlari to‘liq yakunlandi.

Xatlov yakunlari bo‘yicha 10 ta ko‘chaga nom berilmaganligi aniqlandi. Toshkent viloyati Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2026-yil 12-iyundagi 95-son yig‘ilish bayoni asosida Bekobod shahar komissiyasining 2026-yil 13-martdagi yig‘ilish bayoni ko‘rib chiqildi hamda 10 ta geografik obyekt nomining qonunchilik talablariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa olindi.

Shuningdek, Respublika ekspert komissiyasi tomonidan mazkur 10 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha kiritilgan takliflarning barchasi O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-sonli qonun hujjatlari talablariga muvofiq ekanligi yuzasidan ekspert xulosasi berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori hamda Toshkent viloyati Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2026-yil 12-iyundagi 95-son yig‘ilish bayonini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Bekobod shahar kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va ularni qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi kotibi G. Mirzaaxmedovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bekobod shahar komissiyasining 2026-yil 13-martdagi yig‘ilish bayonida berilgan 10 ta geografik obyektni (ko‘cha, tor ko‘cha va berk ko‘cha) nomlash hamda qayta nomlash bo‘yicha xulosasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bekobod shahar Soliq inspeksiyasi, shahar Statistika bo‘limi, Davlat xizmatlari markazi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Ichki ishlar bo‘limi, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining shahar bo‘limi, Davlat kadastrlari palatasi agentligining shahar bo‘limi hamda boshqa tegishli tashkilotlar rahbarlari mazkur qaror bilan nom berilgan va qayta nomlangan 10 ta geografik obyekt bo‘yicha nomlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa zarur tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Mazkur qaror “Bekobod yangiliklari” – “Novosti Bekabada” gazetalarida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi kotibi G.Mirzaaxmedova geografik obyektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun o‘n kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga taqdim etsin.

6. Ushbu qaror rasman imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **DUSHABAYEV JAXONGIR TOLIBJONOVICH**

Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2026-yil 28-avgustdagi
VII-35-60-10-149-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Bekobod shahridagi Geografik obyektlarni (ko‘cha, tor ko‘cha va berk ko‘cha) nomlash hamda qayta nomlash to‘g‘risida

t/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi (mahalla)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Tor koʻcha	Oʻzbekiston	Nomsiz	Andijon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Koʻcha	Hamid Olimjon	Nomsiz	Koʻklam	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Tor koʻcha	Farhod	Nomsiz	Sadaf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Koʻcha	Istiqlol	Nomsiz	Sadaf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Berk koʻcha	Farhod	Nomsiz	Sadaf	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Koʻcha	Alisher Navoiy	Nomsiz	Xamsa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Berk koʻcha	Alisher Navoiy	Nomsiz	Xamsa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Koʻcha	Hamid Olimjon	Nomsiz	Yurt iftixori	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Tor koʻcha	Oʻzbekiston	Zarafshon	Zarafshon-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq